

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSC.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**G'YOSOV BOBUR ULUG'BEK O'G'LI**

**XITOIY TA'LIM SHIORLARNING LEKSIK-SEMANTIK**  
**VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 81(276)6(575.2)(04)**

**КБК: 81.411.2:81.711**

**G 46**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**G'iyosov Bobur Ulug'bek o'g'li**

Xitoy ta'lim shiorlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlari ..... 3

**Гийёсов Бобур Улугбек угли**

Лексико-семантическая и структурная характеристика китайских  
образовательных лозунгов ..... 23

**Giyosov Bobur Ulugbek ogli**

Lexical-semantic and structural characteristics of Chinese educational  
slogans ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSC.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**G'YOSOV BOBUR ULUG'BEK O'G'LI**

**XITOI TA'LIM SHIORLARNING LEKSIK-SEMANTIK  
VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil.2503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Karimov Akramdjan Abilevich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarov Shahriyor Safarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mustafayeva Samida Toshmuxammedovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_»\_\_\_\_\_ soat\_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz).)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**A.M.Mannonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

**N.R.Ismatullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

**X.Z.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida shiorlarning fonetik, leksik, semantik, morfologik, sintaktik jihatlarini o‘rganish kabi masalalar yuzasidan izchil izlanishlar olib borilmoqda. Shiorlar tuzilishi, uning tarixiy, ilmiy-nazariy xususiyatlari doimiy ravishda ilm ahlini qiziqtirib kelayotgan mavzulardan hisoblanadi. Shunday ekan, shiorlarni lingvistik tahlil etish, hamda ularning integral va defferensial tomonlarini aniqlash muhim sanaladi.

Dunyo tilshunosligida shiorlarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslar diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Binobarin, shiorlarning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi qarashlarni umumlashtirish, tizimga solish hamda mutaxassislar e‘tiboriga havola etish sohasida amalga oshirilgan izlanishlar katta ilmiy-nazariy ahamiyatga molik.

Respublikamizda keyingi yillar mobaynida shiorlarni o‘rganish, tadqiq qilish, amaliyotda qo‘llash, ulardagi ilg‘or-innovatsion g‘oya va fikrlarini o‘zbek jamiyatiga tatbiq etish va shu bilan birga, o‘zbek olimlari yaratayotgan yangi ilmiy nazariyalarni jahon talablari darajasiga ko‘tarish ularni dunyo afkor ommasi e‘tiboriga havola etish masalasi kun tartibidan mustahkam o‘rin olmoqda. Ayniqsa, XXR ta‘limni rivojlantirish maqsadida shiorlardan keng foydalanishi ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘lmoqda. “Biz madaniy-gumanitar almashinuvni, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va arxeologiya sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam institutsional asoslarni yaratdik. Bu umumiy boylik, xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvning buzilmas poydevoriga aylandi<sup>1</sup>”, - degan edi o‘z nutqida Prezident Sh.Mirziyoyev. Bu jihat ta‘lim shiorlarini o‘rganish uchun muhim zaruriyat ekanligini anglatadi. Ta‘lim shiorlarini maktablarda tatbiq etish masalasi nafaqat Xitoy balki O‘zbekistonda ham amalga oshirilmoqda, masalan O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev umumta‘lim maktablarida qanday shior bo‘lishi lozimligini aytib o‘tdi. “Abdulla Avloniyning tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan so‘zlari har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart<sup>2</sup>, - degan o‘z nutqida prezident Sh.Mirziyoyev.

Xitoy ta‘lim sohasining rivojlanishi tarixan Konfutsiychilik ta‘limoti g‘oyalariga tayangan holda, G‘arbning ilg‘or tajribasi, hatto sobiq ittifoq ta‘lim tizimida qo‘llangan tajribani ham o‘zlashtirgan va bu omillarni o‘ziga xos mushtaraklikda amaliyotga tatbiq etib, sohada yuqori natijalarga erishayotgan davlat desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Tabiiyki, bu omillar ta‘siri xitoy jamiyatining o‘ziga xos va ajralmas qismi bo‘lgan shiorlarda aks etadi. Shunday ekan, ta‘lim sohasi shiorlarining lisoniy tadqiqi lingvopragmatika, lingvopsixologiya, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika kabi qator antroposentrik paradigmaga tayangan tilshunoslik sohalarida qimmatli xulosalarni olish uchun obyekt bo‘la oladi. Shunga qaramay, mazkur dissertatsiya an‘anaviy yo‘lda, asosan, struktur tilshunoslikka oid tadqiqot sifatida shakllantirilgan. Shunda ham xitoy ta‘lim shiorlari til birliklarining tadrijiy taraqqiyoti, ularda kechgan morfologik, leksik, semantik va funktsional evolyutsiyani ochib berishi bilan ahamiyatlidir.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning 2024-yil 22-yanvar kuni Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi jarayonida bergan nutqidan. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/president/>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning 2019-yil 24-avgust kuni “O‘qituvchi” kanalida ma‘lum qilindi. <https://www.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>

O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalarning rivojlanib borayotganligiga O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat tashrifi bilan 2023-yil 18-may kuni Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Dzinpin bilan ikki tomonlama muzokaralar uchun uchrashganini dalil sifatida ko‘rish mumkin. Mazkur tashrif doirasida gumanitar soha muhokama qilinar ekan, ta‘lim va turizm hamkorlikni faollashtirish, o‘zaro madaniyat, san‘at va kino kunlarini o‘tkazish, an‘anaviy tibbiyot kabi sohalarda dasturlar amalga oshirish zarurligi haqida yakdil fikr bildirildi. Ta‘lim va turizm hamkorlikni faollashtirish xitoy tili o‘rganishdagi barcha yo‘nalishlarini qamrab olib, ikki xalqning bir-birini yaxshi tushunishida, do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlashuviga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Izlanish olib borish jarayonida, mavzu bo‘yicha bir qator xitoy, rus va o‘zbek xitoyshunoslarining ilmiy ishlari mavjudligi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida A.A.Karimov, M.X.Maxmudxodjaev, S.A.Nosirova S.A.Xoshimova, O.M.Ochilov, F.M.Xasanova, S.T.Mustafayeva, N.R.Ismatullayeva, T.Akimov<sup>3</sup> va boshqa tilshunoslar xitoy tilida hisob so‘zlarning, terminlarning leksik-

---

<sup>3</sup>Karimov A. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик–семантик, структурал ва функционал таҳлил. – Тошкент: ТошДШИ, 2003. – Б.119.; Махмудходжаев М. Хитой тилшунослиги тарихи. 2004 й. – Б.25.; Носирова С. Хитой тилининг ижтимоий–сиёсий ва дипломатик терминологияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. –Б. 150.; Xashimova S.A. Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya, affiksatsiya va konversiya. -Toshkent: Yosh kuch, 2020. -B.338.; Ochilov O.M. VII-X aslar Tang davri she‘riyatida ramzlar semantikasi: avtoref dis... filol.f.f.d. (PhD)/Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. -Toshkent, 2018. -B.52.; Xasanova F.M. Xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari: avtoref.dis...filol.f.f.d. (PhD)/Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. -Toshkent, 2021. -B.60.; Ismatullaeva N.R. Konfutsiy asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy atamalar semantikasi va ularning tarjimada berilishi. -Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2020. -B.123.; Akimov T. Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar: shakllanishi va semantikasi. Filol.fan. fal.dok. (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2022. -B.42.

semantik tahlilini amalga oshirganlar, biz ilmiy ishimizda uslubiy jihatdan zikr etilgan olimlarning ishlariga tayanamiz.

Rus xitoyshunoslaridan A.N.Bondarenko, A.A.Vasilyeva, E.I.Zikova, Yu.V.Nikifrova<sup>4</sup> kabilarning ilmiy tadqiqotlarida shiorlarni pragmatik va kommunikativ vazifalarini o'rganish masalalari mavzusi ko'tarilgan.

Xitoy tilshunosligida ta'lim shiorlarini lingvistik tahlil qilish borasida ilmiy ishlar amalga oshirilgan, chunonchi Chen Pengyong, Nye Guylan, Chen Si, Sye Yi, Vu Shi, Li Junvey, Chen Sihuy, Vang Sia, Mao Vey<sup>5</sup> singari olimlarning shiorlar to'g'risidagi lingvopragmatika, lingvopsixologiya, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistikaga oid ilmiy ishlari e'tiborga loyiq.

Biroq xitoy tilidagi ta'lim shiorlari leksik-semantik va struktur jihatdan o'rganilmagan. Shu bois mazkur dissertatsiya lingvistik nuqtai nazardan muhim, shu ma'noda ushbu mavzuni tadqiq etish dolzarb sanaladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini organish va tilshunoslikning nazariy masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xitoy tilidagi ta'lim shiorlarini leksik-semantik va struktur xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

shiorlar to'g'risidagi mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish orqali Xitoy ta'lim shiorlari shakllanishi, ahamiyati va rolini aniqlash;

Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan da'vat etuvchi ta'lim shiorlarini struktur va leksik-semantik jihatdan guruhlash yordamida ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ta'lim shiorlarida modallikning ifodalanishiga e'tibor qaratish va ularning turlarini aniqlash;

o'quvchilar tomonidan tuzilgan motivlashgan ta'lim shiorlarini tasniflash, ularning struktur hamda leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish.

---

<sup>4</sup>Бондаренко А. Н. Лексико-стилистические особенности китайских военно-политических лозунгов // Сборник научных трудов: в 3-х ч. Новосибирск: Новосибирский военный институт имени генерала армии И. К. Яковлева войск национальной гвардии Российской Федерации, 2018. – С.16-20.; Васильева А. А. Значение лозунгов в жизни китайского общества // Россия и Китай: история и перспективы сотрудничества: материалы 2-й Международной научно-практической конференции, отв. ред. Д.В.Буяров. Благовещенск: Благовещенский государственный педагогический университет, 2012. –С.243-245; Васильева А. А., Антипина С. А. Структурные особенности современных китайских лозунгов // Социосфера. 2018. -№ 2. – С. 66-68; Зыкова Е. И. Роль интернет-лозунгов в политическом дискурсе современного Рунета // Интерактивная наука. 2017. -№ 3 (13). – С.123-125; Никифорова Ю. Н. К вопросу разграничения пословиц, поговорок, лозунгов, максим, афоризмов и сентенций // Вестник Башкирского университета. 2006. – С.106-109.

<sup>5</sup>陈鹏勇. 教育口号视角下的教育发展观嬗变[J]. 学术研究, 2018 (6):172-176 // 聂桂兰. 标语口号: 劝说和宣告功能丧失之后—江西吉安村“国企”标. 济南: “当代修辞学”, 2004, (2):153 // 聂桂兰. 乡村教育宣传类户外标语口号的语用学分析[J]. 培训与研究 (湖北教育学院学报), 2004 年, 21 (4):13-15 // 程斯辉, 李中伟. 一个类似神话的教育口号: 一切为了孩子, 为了一切孩子, 为了孩子一切 [J]. 教育科学研究, 2011 年 (12):5-9 // 谢翌, 潘安童. 新中国教育口号的价值嬗变与理性审思[J]. 教育理论与实践, 2017 年, 37 (4):15-18 // 吴世勇. 从教育口号看建国以来的教育价值取向[J]. 湖北函授大学学报, 2015(6):106-107 // 郑金洲. 教育口号辨析[J]. 教育研究与实验, 1998 年, (3):27-30 // 李中伟, 程斯辉. 谈教育口号的拟制. 教育科学研究, 2013(9):26-30 // 王旭霞. 反思两则教育口号. 少年儿童研究, 2010 年, (18):53-54 // 茅卫东. 对某些教育口号的反思[J]. 广东教育(综合版) 2003: 66-67.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Xitoy ta'lim shiorlari tanlanib olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Xitoy ta'lim shiorlarini leksik-semantik va struktur jihatdan tahlil etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot uchun to'plangan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib, an'anaviy kompleks analiz usuli, korpus lingvistikasi, semantik, tavsifiy, tahlil usullariga murojaat etildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xitoy tilshunosligida ilgari alohida va mustaqil obyekt sifatida keng ko'lamda o'rganilmagan ta'lim shiorlari ilk bor monografik tarzda kompleks tadqiq etilib, Xitoy ta'lim shiorlarining shakllanishi, ahamiyati va ijtimoiy-ma'naviy roli va shiorlar borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar aniqlangan;

ta'lim shiorlarining leksik-semantik va struktur xususiyatlari tizimli tahlil qilinib, Xitoydagi ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan da'vat etuvchi ta'lim shiorlari asosida ularning sintaktik va semantik qurilishi aniqlanib, struktur jihatdan qanday modellar asosida shakllanishi ilmiy asosda isbotlangan;

modallik ifodalanishining lingvistik xususiyatlari o'rganilib, ularning semantik vazifasi yoritilgan holda, tadqiqotda da'vat etuvchi va motivlashgan shiorlarda modallik kategoriyasi grammatik va semantik sathida lingvistik vositalar orqali yuzaga chiqishi ilmiy asosda dalillangan;

o'quvchilar tomonidan tuzilgan motivlashgan ta'lim shiorlarining tuzilishi, leksik tarkibi va semantikasi tahlil qilinib, struktur modellari, ishlatilgan leksik vositalar va semantik yo'nalishlari aniqlanib, o'quvchilar tilida shakllangan ta'lim shiorlar misolida ma'naviy ideallar va shaxsiy intilishlarning til strukturasi qanday ifodalanishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ta'lim shiorlarining strukturasi aniqlash borasida ishlab chiqilgan yondashuv boshqa tillardagi tadqiqodlar uchun amaliy material vazifasini o'taydi;

ta'lim shiorlarining o'ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida hamda zamonaviy xitoy millatining kumulyativ tajribalarini ko'rsatishida muhim o'rin tutishi aniqlangan;

ta'lim shiorlarining ma'no ko'lami hamda ularning bevosita komponentli ko'rinishlari bilan bog'liq tahlillardan manbalar tilini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarni ishonchliligi, ishda foydalanilgan manbalar asosida fundamental ilmiy va maxsus adabiyotlarga tayanilgan holda tanlangan tadqiqot usullar va nazariy ma'lumotlarning asosliligi, keltirilgan tahlil, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy qarashlar, xususan, ta'lim shiorlarini lingvistik aspektda monografik planda ilk bora tizimli tarzda tadqiq etilgani, nazariy xulosalar ta'lim shiorlarining leksik o'zgarishlar, semantik munosabatlar, lisoniy hodisalar mohiyatiga tayanib chiqarilgani, ta'lim shiorlarining shakllanish

hamda taraqqiyot bosqichlari xususida mavjud fikr va mulohazalarni muayyan darajada oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xitoy tilining shiorlar tizimini shaklan, semantik, soʻz yasalishi, leksikologik oʻrganishda nazariy manba vazifasini oʻtaydi, hamda tadqiqot natijalari taʼlim sohasi boʻyicha izohli lugʻatlarni tuzishda, soha vakillariga taʼlim shiorlari boʻyicha oʻquv qoʻllanma va darsliklar yaratishda, xitoy taʼlim shiorlari boʻyicha qiziquvchilar uchun amaliy dastur vazifasini oʻtashi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xitoy taʼlim shiorlarini tahlil etish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Xitoy taʼlim shiorlarining leksik-semantik tahlili amalga oshirilishi va ularni ichki komponentlari oʻrtasidagi grammatik munosabat hamda tuzilishining aniqlanishi natijalaridan TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi oʻzbek-xitoy institutida oʻquv faoliyati jarayoniga keng tatbiq qilinmoqda, xususan, “Xitoy tili” fanidan davom ettiruvchi guruhlarda darslar jarayonida qoʻllangan. (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi oʻzbek-xitoy institutining 2024-yil 19-iyundagi 192/24-son maʼlumotnomasi). Natijada Xitoy taʼlim shiorlarini leksik-semantik va struktur jihatdan tadqiq etish xitoy tilshunosligining rivojiga muayyan ulush qoʻshish barobarida kelajakda xitoy va oʻzbek oʻquvchilarini ilm olishga chorlaydi.

taʼlim shiorlarini maktablarda tatbiq etish masalasi nafaqat Xitoyda, balki Oʻzbekistonda ham amalga oshirilmogda, shiorlarning oʻquvchi qalbiga taʼsiri, ilm olishga chorlovi, shiorlarning naqadar dolzarb mavzu ekanligidan dalolatdir, shu munosabat bilan “Oʻzbekiston” radiokanalining “Tafakkur va ijod”, “Madaniy hayot”, “Jahon adabiyoti”, “Ziyo maskanlarida” kabi eshittirishlarining senariylarini tayyorlashda keng foydalanildi. (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali DUKning 2024-yil 15-oktabrdagi 02-36-1117-son maʼlumotnomasi). Natijada, ushbu shiorlarning taʼlim muhitida qoʻllanilishi nafaqat oʻquvchilarda xitoy tiliga va madaniyatiga boʻlgan qiziqishni kuchaytiradi, balki oʻzaro til oʻrganish orqali madaniyatlararo anglashuv va hurmat tuygʻusini shakllantiradi. Bu esa Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasidagi taʼlimiy va madaniy hamkorlikni faollashtirib, ikki xalq oʻrtasida umumiy qadriyatlarga asoslangan muloqot madaniyatining chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Xitoy taʼlim shiorlarining lugʻat tarkibi, genezisi, semantikasi va strukturaviy xususiyatlariga bagʻishlangan tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar, materiallardan Xitoy Xalq Respublikasi Gansu siyosiy fanlar va huquq universiteti tomonidan tashkil etilgan “Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasidagi hamkorlik istiqbollari” loyihasida xalqaro talabalar davra suhbatiga tayyorgarlik koʻrish doirasida foydalanilgan. (Xitoy Xalq Respublikasi Gansu siyosiy fanlar va huquq universitetining 2025-yil 20-yanvardagi maʼlumotnomasi). Natijada, mazkur shiorlar taʼlim jarayonida ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy qadriyatlarni mustahkamlash vositasi sifatida namoyon boʻlib, Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasida taʼlim sohasidagi oʻzaro tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Mazkur tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 132 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarining ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xitoy shiorlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”**, deb nomlangan. Ushbu bobda o'zbek, xitoy, rus, ingliz tilshunoslarining ilmiy-nazariy qarashlari tahlil etilib, shiorlarni qanday tahlil etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shiorlar ijtimoiy nutqning bir turi sifatida butun dunyoda keng qo'llaniladigan muhim madaniy hodisa. Madaniy ahamiyatga ega lingvistik hodisa sifatida shiorlar turli mamlakatlar olimlari va mutaxassislarining e'tiborini o'ziga tortib, jalb qilmoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida, shior (arab. شعار - hayot yo'li, maqsad, orzu, g'oya) - bosh g'oya, masala yoki siyosiy talabni ifodalovchi, qisqa shaklda bayon qilingan chaqiriqdir<sup>6</sup>.

Etimologik lug'atga ko'ra, shior (*slogan*) termini qadimgi shotland tilidagi ikki so'z *sluagh-ghairm*, ya'ni *“jang sadosi”* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan<sup>7</sup>.

Oksford ingliz tili lug'ati tomonidan taqdim etilgan ta'rifga ko'ra, shior reklama, siyosat, ta'lim va ijtimoiy sohalaridagi shiorlarni o'z ichiga oladi<sup>8</sup>.

Oksford ingliz lug'atining keyingi sonlarida qo'shimcha qilib, shior (*slogan*) qisqa, sodda, ixcham va esda qolarli qisqa matn ekanligi to'g'risida yozilgan<sup>9</sup>.

Kembridj ingliz lug'atida shiorlarning quyidagi guruhlari mavjudligi ko'rsatib o'tiladi: reklama, biznes va tijorat sohalariga tegishli sloganlar, siyosat, ta'lim, madaniyatga oid sloganlar<sup>10</sup>.

Sin Lunning<sup>11</sup> matnshunoslik ishida ko'rsatilishicha, qadimgi Xitoy klassiklari asarlarida aynan 标语口号 [biāoyǔ kǒuhào] *lozung*, degan maxsus termin yo'q. Bu

<sup>6</sup>[https://drive.google.com/file/d/1kqDQh3kQbX352Z0qVc\\_TVhXfMBtQKHEN/view](https://drive.google.com/file/d/1kqDQh3kQbX352Z0qVc_TVhXfMBtQKHEN/view)

<sup>7</sup>Этимологический словарь славянских языков. – М.: Наука, 2001. – С. 479.

<sup>8</sup>Толковый словарь современного английского языка для продвинутого этапа. Специальное издание для СССР в двух томах. Москва. «Русский язык», 1982. – С. 181.

<sup>9</sup>Stevenson, A. Oxford Dictionary of English (Vol. III). Oxford University Press Stivenson. – P. 345.

<sup>10</sup><https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/slogan>

<sup>11</sup>姚鑫隆. 浅谈标语写作的要求, 《江西社会科学》, 江苏, 2001, (1). - 8 页.

termin 1919-yil 4-may<sup>12</sup> Pekinda besh mingdan ziyod talabalar tomonidan turli shiorlar ostida o‘tkazilgan antiimperialistik norozilik mitinglari natijasida yuzaga kelgan. Xitoy nashriyot uyi ikki oy davom etgan bu jarayonlarni o‘z gazetalarida “4-may harakati” nomi bilan yoritadi. Shuningdek, bo‘layotgan harakatlarga siyosiy tus berish uchun Yaponiya tilshunosligidan 标语口号 [biāoyǔ kǒuhào] nomli termin xitoy tiliga semantik o‘zlashtirilgan va birinchi marotaba “lozung” termin sifatida 标语口号 [biāoyǔ kǒuhào] nomi bilan Xitoy jamiyatiga integrallashgan<sup>13</sup>.

现代汉语词典 [xiàndài hànyǔ cídiǎn] zamonaviy xitoy tili lug‘atida shunday tavsiflangan: “shior 标语口号 [biāoyǔ kǒuhào] - yozma ravishdagi lakunar birikma bo‘lib, uning asosiy maqsadi targ‘ibot va tashviqotdan iborat”<sup>14</sup>.

Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti lug‘atiga ko‘ra, “shior 标语口号 [biāoyǔ kǒuhào] harakatga undaydigan qisqa va aniq chaqiruv”<sup>15</sup>.

Xitoy tilining izohli lug‘atida lozungga tashviqotni targ‘ib qilish uchun yozilgan qisqa matn, deb ta‘rif berilgan<sup>16</sup>.

“Venyan: Xitoy - adabiy tili” jurnalida yozilishicha, shiorlardagi matn strukturasi qisqa va sodda bo‘lishi, shiorlar g‘oya, mafkura, ta‘lim ideologiyasi, milliy qadriyatlarning umumiy belgilarini o‘zida aks ettirishi kerak<sup>17</sup>.

Xitoy shiorning vatani bo‘lmasa-da, ulardan foydalanish juda erta boshlangan. Shiorlarni lingvistik jihatini bir qator olimlar o‘rganishgan. Lyu Syuening fikricha, “xitoy shiorlarining o‘ziga xos xususiyatlari xitoy xalqining madaniyati, tarixi bilan birgalikda til kabi noyob hodisaning rivojlanishi va gullab-yashnashi bilan bog‘liq, chunki boshqa millatlarda shiorlarning bunchalik kuchli jihatlari namoyon bo‘lmaydi”<sup>18</sup>. Shu ma‘noda Fu Shan Xitoy shiorlarini maxsus tasnifini to‘rt mavzuga bog‘lab tuzish g‘oyasini beradi<sup>19</sup>. Jan Ping shiorlarni grammatik jihatdan tahlil qilgan<sup>20</sup>. Vang Dapeng shiorlarni morfologik jihatdan o‘rgangan<sup>21</sup>. Li Dechao shiorlarni tarjima qilish strategiyalarini yaratgan<sup>22</sup>. Yan Ke shiorlar nafaqat jamiyatdagi islohotlarni, balki muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalarni ham aks ettiruvchi hodisa ekanligini ta‘kidlagan<sup>23</sup>. Fan Shusun shiorlarni sotsiolingvistik jihatdan tahlilini

<sup>12</sup>4-may harakati (an‘anaviy xitoycha chàngàngàng, pinyin Wǔsì yùndòng) - 1919-yilning may-iyun oylarida Oktyabr inqilobi ta‘siri ostida Xitoyda ommaviy aksil imperialistik (asosan antiyapon) harakat.

<sup>13</sup>Илюшечкин В.П. Антиимпериалистическое движение 4 мая 1919 г. // Пробл. Дальнего Востока. 1979. – С. 156. <https://drive.google.com/file/d/1imHvxObE1TMTQVrS8QXaVCgArahmgcpG/view?usp=sharing>

<sup>14</sup>现代汉语词典. 北京: 商务印书馆, 2012年. – 345页.

<sup>15</sup>中国社会科学院语言研究所词典编辑室, 北京, 2005(2). – 88页.

<sup>16</sup>[http://www.dacihai.com.cn/search\\_index.html?\\_st=1&keyWord=标语](http://www.dacihai.com.cn/search_index.html?_st=1&keyWord=标语)

<sup>17</sup>Kim E. V., Sageeva Ya. P. Chinese literary language “Wenyan” // Young scientist, 2015. – P. 487.

<https://drive.google.com/file/d/1QIADfRGznQpfQmsQHIFGM4CkC7BI6E7m/view?usp=sharing>

<sup>18</sup>陆学艺. 当代中国社会阶层研究报告. 北京: 社会科学文献出版, 2002. – 146页.

<sup>19</sup>付珊珊. 新时期标语的思想政治教育功能研究: 北京, 2016年. – 83页.

<sup>20</sup>张萍, 现代汉语标语语法研究. 《南京师范大学》. 北京, 2006年, 硕士论文. – 9页.

<sup>21</sup>王大鹏. 当代标语口号的语言研究, 当代标语口号的语言研究-汉语言文字学专业论, 汉语言文字学研究方向现代汉语. 2009. – 53页.

<sup>22</sup>李德超. 标语翻译的文本分析和翻译策略, 北京, 2005. – 14页.

<sup>23</sup> <https://drive.google.com/file/d/1Amsb5DjamBfWcD1IhDfM8kiHOHKoDnkc/view?usp=sharing>

amalga oshirgan<sup>24</sup>. Shang Li shiorlarni ingliz tiliga tarjima qilib, ularni pragmatik xususiyatlarini ochib bergan<sup>25</sup>.

Xitoy ta'lim shiorlarining shakllanish bosqichlariga to'xtalib, ularning har bir bosqichdagi ijtimoiy-ma'naviy roli va ahamiyatini tahlil qilamiz.

Xitoyda ta'lim shiorlari shakllanish bosqichining birinchi davri Konfutsiyning ta'lim shiorlari bilan boshlanadi. Konfutsiy shiorlari Xitoy jamiyatida axloqiy va ijtimoiy hayotning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan va o'z davrida, shuningdek, keyingi asrlar davomida, Xitoy siyosati va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu qadriyatlar Xitoyning falsafiy va siyosiy tizimining markazida bo'lib, shiorlar orqali xalqni axloqiy tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan. Masalan: 有教无类<sup>26</sup> [yǒu jiào wú lèi] – “*Ta'lim berishda hech kimni ajratmaslik kerak*”, ya'ni, ta'lim berishda oqilmi, yoki johil, donishmand yoki nodon, yuqori yoki past lavozim egasi bo'lishidan qat'iy nazar, ularga teng munosabatda bo'l va bir xil ta'lim ber.

Shiorlarning shakllanish bosqichlarining ikkinchi davri qadimgi Xitoyning birinchi imperiyasi sanalgan Tsin<sup>27</sup> sulolasi davriga borib taqaladi. Masalan: 以法为教, 以吏为师<sup>28</sup> [yǐ fǎ wéi jiào, yǐ lì wéi shī] – “*Qonunni ta'lim deb biling, amaldorni esa ustoz deb biling*”. Bu ta'lim shiori Tsin sulolasining ta'lim siyosatida amalga oshirildi. Xitoy birlashgandan so'ng, Tsin Shihuang xususiy maktablarni taqiqlab qo'ydi va markazlashtirilgan ta'lim tizimini joriy qildi, bu siyosat “*Qonunni ta'lim deb biling, amaldorni esa ustoz deb biling*” shiori ostida amalga oshirildi.

Xitoyda shiorlar shakllanishi bosqichining uchinchi davri qadimgi Xitoyning ikkinchi imperiyasi Chu sulolasiga<sup>29</sup> (mil. av. 209 - 202) oid. Bu sulolasi davrida Konfutsiy ta'lim shiorlari jamiyat hayotida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etdi. Shiorlar tuzilish jihatdan bugungi kunga qadar hech bir ozgarishlarsiz yetib kelgan. Bu shiorlardan hozir ham ijtimoiy-ta'limiy sohada ishlatilib kelinadi. Masalan: 诲人不倦<sup>30</sup> [huì rén bù juàn] - “*Tinimsiz o'rganing, ta'lim berayotganda sabrli bo'ling*”.

Xitoyda shiorlar shakllanishi bosqichining to'rtinchi davri qadimgi Xitoyning uchinchi imperiyasi Xan sulolasiga<sup>31</sup> (mil. av. 206 dan – milodiy 220) oid: 天命不可违<sup>32</sup> [tiānmìng bù kě wéi] - “*Osmonning buyrug'iga qarshi chiqish mumkin emas.*” Bu shior 天命 [tiān mìng] - “*osmonning mandati*” tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, hukumat imtihonlariga oid ta'limiy kontseptsiyalarni o'z ichiga olgan.

Xitoyda shiorlar taraqqiyot bosqichining beshinchi davri Qadimgi Xitoyning to'rtinchi imperiyasi Sin sulolasi<sup>33</sup> davriga to'g'ri keladi. Sin sulolasi davrida ta'lim

<sup>24</sup>孙凡舒，吉林大学文学院研究生院，吉林，长春，2020。- 18 页。

<sup>25</sup>尚丽娟，政治标语口号英译中的语义缺失，北京，2020。- 83 页。

<sup>26</sup>论语 Lun Yu “Konfutsiy so'zlari” asarining 卫灵公 Vey Davlatining hukmdori Ling Gong haqidagi bobning 39-iborasi.

<sup>27</sup>Tsin - Xitoydagi imperatorlar sulolasi. Asoschisi — Tsin Shixuandi. Poytaxti — Syanyan sh. Tsin hukmronligi davrida Xitoy tarixida ilk marotaba markazlashgan davlat tuzilgan.

<sup>28</sup>Ushbu ta'lim shior Xan Feyning 《韩非子·五蠹》 “Xan Feyzi - Besh zarar” bobi risolasidan olingan.

<sup>29</sup>Chu sulolasi – Tsin Shixuang vafotidan keyin Xan sulolasi o'rnatilgunga qadar o'tish davri. Bu davr Chu va Xan o'rtasidagi qarama-qarshilik va ko'p tomonlama harbiy mojarolarning notinch davri hisoblanadi.

<sup>30</sup>论语 Lun Yu “Konfutsiy so'zlari” asarining 述而 Charchamasdan o'rgatish bobining 7-iborasi.

<sup>31</sup>Xan - qad. Xitoyda imperatorlar sulolasi (mil. av. 206 — mil. 220), ushbu sulolasining asoschisi Lyu Ban.

<sup>32</sup>Sima Chianning “Shi szi” (*Tarixiy xotiralar*) asaridan.

<sup>33</sup>Sin sulolasi (新朝 [xīncháo] - “*Yangi sulola*”) qisqa muddatli edi.

tizimi katta ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab ta‘lim shiorlari falsafiy g‘oyalar bilan birga rivojlangan. Bu davrda Konfutsiylik ta‘limoti, davlat imtihonlari tizimi va o‘qituvchilarni yuqori qadrlash asosiy o‘rin tutgan. Masalan: 温故知新<sup>34</sup> [wēn gù zhī xīn] - “O‘rganganlaringizni qaytaring, o‘rgangan bilimlaringizni qayta ko‘rib chiqish orqali siz yangi tajribaga ega bo‘lasiz”.

Xitoyda ta‘lim shiorlar shakllanish bosqichining keyingisi yaqin o‘tmishda Xitoyda bo‘lib o‘tgan “Madaniy inqilob” bilan bog‘liq. Masalan: 教育兴国，红色文化薪火相传!<sup>35</sup> [jiàoyù xīngguó, hóngsè wénhuà xīn huǒ xiāngchuán] - “Ta‘lim bilan mamlakatni rivojlantirish, qizil madaniyatni avloddan-avlodga uzatish!”. Bu davrga oid ta‘lim shiorlarining ijtimoiy-ma‘naviy roli haqida so‘z borar ekan, ularni Xitoy jamiyatining ma‘naviy asoslarini mustahkamlashdagi muhim roli haqida aytish zarur.

Xitoyda ta‘lim shiorlari shakllanishining yettinchi bosqichi Den Syaopingning “islohotlar va ochiqlik” siyosatidan 2010-yilga qadar. Bu davr “sifatli ta‘lim” dasturi bilan mashhur. Masalan: 素质教育是时代发展的呼唤 [sùzhì jiàoyù shì shídài fāzhǎn de hūhuàn] - “Sifatli ta‘lim mamlakat kelajagini belgilaydi” shiori ostida ta‘lim sohasidagi ko‘p muammolar o‘z yechimini topgan.

Xitoyda ta‘lim shiorlar shakllanishining so‘nggi bosqichi 2010-yildan bugungi kunga qadar davom etayotgan davrda shiorlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlariga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu davr shiorlari uch unsurga tayangan holda shakllanmoqda: *innovatsiya, adolat, uyg‘unlik*. Bu davrdagi shiorlarning maqsadi: innovatsion fikrlashni rivojlantirish, ta‘limdagi tengsizlikni bartaraf etish. Masalan: 教育为了每一个孩子<sup>36</sup> [jiàoyù wèile měi yīgè háizi] - “Ta‘lim-har bir bola uchun”.

Targ‘ibot va tashviqot ahamiyatiga molik vosita sifatida shiorlar oddiy gaplardan farq qiladi va o‘ziga xos tuzilish kasb etadi. Aksariyat shiorlar shakl jihatidan qisqa, ixcham bo‘lib, faqat bir turga mansub so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Shiorlarning mana shunday o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda va 刘青 Lyu Ching Xitoy shiorlaridagi birikmalarining ishtrokiga ko‘ra, shiorlar tuzilishini tahlil etadi. Uning tahlil usuli shiorlarni tuzilishini o‘rganishda juda ham samarali<sup>37</sup>.

Lyu Chingning quyidagi tuzilmalar orqali shiorlarni tahlil etadi:

1) “Fe‘l+obyekt” munosabat turiga ko‘ra “boshqaruv” usuli. Bu ikki komponentdan iborat tobe bog‘lanishli so‘z birikmasi bo‘lib, ularning har biri mustaqil so‘zlardan tashkil topadi. Birinchi komponentdagi harakat jarayoni shu so‘z birikmasida kelgan ikkinchi komponent uchun hokim so‘z. Masalan: 苦战一百天，决胜高考巅 [kǔzhàn yībǎi tiān, juéshèng gāokǎo diān] - “Yuz kun davomida vujudingiz bilan kurashing va talabalik maqomiga erishing”.

2) “Aniqlovchili” munosabat turiga ko‘ra “atributiv” usuli. Atributiv - tobe aloqaning bir turi bo‘lib, bunda birikmaning tobe qismi hokim bo‘lak shakliga

<sup>34</sup> 论语 Lun Yu “Konfutsiy so‘zlari” asarining 先进 Yuksaklik bobining 2-iborasi

<sup>35</sup> 毛主席语录 - “Mao raisning so‘zlari” bu “Qizil kitobcha” sifatida tanilgan yo‘riqnomadan olingan.

<sup>36</sup> 2010-yil, Milliy ta‘lim konferensiyasi: Bosh vazir Ven Jiabao ushbu konferensiyada ushbu shior ostida nutq so‘zlagan.

<sup>37</sup> 刘青. 《汉语标语语言学》, 北京: 国社会科学出版社, 2007. 65 - 页.

moslashadi va shu tarzda bog‘lanadi. Masalan: 智慧课堂, 高效学习 [zhìhuì kètáng, gāoxiào xuéxí] – “Aqlli sinf, samarali ta’lim”.

3) “Ega+kesim” munosabat turiga ko‘ra “predikativ” usuli. Ega+kesim birkma –ikki tarkibdan iborat tobe bog‘lanishli so‘z birikmasi bo‘lib, har bir komponenti mustaqil so‘zlardan tashkil topadi va alohida so‘roqqa javob bo‘ladi. Masalan: 百日竞渡, 全力以赴; 蟾宫折桂, 十四夺魁 [bǎi rì jìngdù, quánlì yǐ qǐ; chángōng zhé guì, shísi duókuí] – “Yuz kunlik imtihonda bor kuch bilan harakatlaning, Oy saroyida nafisa gulini uzing va oltin ro‘yxatda 14 marotaba g‘oliblikni qo‘lga kiriting”.

Mazkur yondashuv Xitoy shiorlarini lingvistik va ijtimoiy nuqtai nazardan chuqur yoritib beradi. Unda shiorlarning tuzilishi, ularning jamiyatdagi o‘rni, hamda ularni tahlil qilishda qo‘llaniladigan ilmiy usullar aniq va asosli tarzda bayon etilgan. Liu Ching tomonidan taklif etilgan yondashuv asosida shiorlarni grammatik jihatdan puxta tahlil qilish imkonini beradi.

Shiordagi gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari<sup>38</sup>:

1) Darak gap. Shiorlar - targ‘ibot va tashviqotga chaqiruvchi, insonlarni biror narsaga undovchi, davlat idoralarning siyosatini, ijtimoiy jamoat axloqini, shahar sivilizatsiyasini, jamoat faoliyatini ommalashtirishga qaratilgan qisqa matnlardir. Shuning uchun u ko‘pincha narsalarni tushuntirish uchun deklarativ jummalarga tayanadi. Masalan: 精神成人, 知识成才, 态度成全 [jīng shén chéng rén, zhīshì chéngcái, tàidù chéng quán] - *Ma’naviy yetuklik, bilim ila natija, barkamol kamolot.*

2) Buyruq gap. Kommunikativ vazifasiga ko‘ra buyurish, iltimos, maslahat ma’nolari ifodasini anglatadi. Masalan: 脚踏实地, 心无旁骛, 珍惜分分秒秒 [jiǎo tà shí dì, xīnwú pang wù, zhēnxī fēn fēn miǎo miǎo] - *Osmonlarda uchmay, diqqatni jamla va har bir soniyani qadrla!*

3) Undov gap. Kuchli his-tuyg‘ularni ifodalashda shiorlar ko‘pincha undovdan foydalanadi. Aytish kerakki, bunda shior oxirida yuqorida qayd etilgan gapdagi kabi harakatga chaqiruvchi bunday shior undov gapi kelishi shart emas. Masalan: 祝贺 21 个教师节! [zhùhè dì 21 gè jiàoshī jié] - “*Ustozlar kuni bilan chin dildan tabriklaymiz!*”.

Demak, shiorlardagi gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra darak, buyruq va undov gaplarga ajralishi ularning kommunikativ funksiyasini belgilaydi. Darak gaplar orqali shiorlar axborot berish, tushuntirish va muayyan ijtimoiy xatti-harakatni asoslashga xizmat qiladi. Buyruq gaplar esa insonlarni faol harakatga undash, ogohlantirish va rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi. Undov gaplar orqali kuchli hissiy ta’sir berilib, auditoriyada qiziqish va ruhiy ko‘tarinkilik hosil qilinadi. Ushbu turli gap turlarining shiorlarda uyg‘un qo‘llanilishi ularning semantik va pragmatik kuchini oshiradi.

Ishning ikkinchi bobi “**Xitoy ta’lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta’lim shiorlarlarining leksik-semantik va struktur tahlili**”, deb nomlanadi. Mazkur bobda da’vat etuvchi ta’lim shiorlarni tizimli yondashuv asosida ulardagi elementlarning o‘zaro aloqasi, strukturasi va leksik-semantik xususiyatlari va modallik kategoriyasi tahlil qilingan.

<sup>38</sup>郑金洲. 教育口号辨析. 教育研究与实验, 上海华东师大, 复印期号: 1998年12期, - 32页.

Shiorlarning lingvistik tahlili ularning semantik asoslarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, ularni leksik-semantik jihatdan guruhlariga ajratish orqali ichki ma'no qatlamlari chuqur ochib beriladi. Shiorlar tarkibidagi til birliklari - so'zlar, frazemalar, iboralar - o'zaro semantik bog'lanishda bo'lib, umumiy g'oyaviy maqsadga xizmat qiladi. Tahlil natijasida motivlangan leksik birliklar semantik mezonlar asosida tartiblandi. Bu yondashuv shiorlarni faqatgina tarjima qilish emas, balki ularning asl g'oya va ta'sirini anglash imkonini berdi. Leksik-semantik tahlil orqali shiorlarning badiiy, didaktik va axloqiy qiymatini chuqurroq o'rganish mumkin bo'ldi. Shu sababli Xitoy ta'lim shiorlarini tizimli leksik-semantik jihatdan tahlil qilish lingvistik tadqiqotlar uchun dolzarb va samarali yo'nalish hisoblanadi.

Quyida ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan da'vat etuvchi ta'lim shiorlarining leksik-semantik tahliliga e'tibor qaratamiz. Masalan: 脚踏实地, 心无旁骛, 珍惜分分秒秒 [jiǎo tà shí dì, xīnwú pangwù, zhēnxī fēn fēn miǎo miǎo] – “*Jiddiy bo'l, diqqatni jamla, har soniya va har daqiqani qadrla*”. 脚踏实地<sup>39</sup> [jiǎo tà shí dì] – so'zma so'z “*mustahkam poydevor ustida turmoq*” tarzida tarjima qilinuvchi bu fe'lli frazema, umumiy xususiyatiga ko'ra “*jiddiy bo'l*” ko'chma ma'nosida qo'llaniladigan birikma. 脚踏实地 [jiǎo tà shí dì] “*jiddiy bo'l*” turg'un iborasi 心无旁骛 [xīn wú pang wù] “*diqqatni jamla*” frazemasini bilan birikib “*jiddiy bo'l, diqqatni jamla*” jumlasini, 珍惜 [zhēn xī] “*qadrlamoq*” mustaqil so'zi 分分秒秒 [fēn fēn miǎo miǎo] - “*har soniya va har daqiqa*” ma'nosini bildiruvchi teng bog'lanishli so'z birikmasiga birikib, “*har soniya va har daqiqani qadrla*”, degan imperativ shakldagi da'vat etuvchi ta'lim shiorini yuzaga keltirmoqda. Demak, bu shior ikki turg'un ibora va bitta mustaqil so'z hamda bitta so'z birikmasidan tashkil topgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur shior tuzilish jihatidan monosillabikdir. Shiorlar bir-biriga hech qanday qo'shimchalarsiz birikmoqda. Tahlil shu'ni ko'rsatadiki, da'vat etuvchi ta'lim shiori – o'quvchilarni ta'limga targ'ib etish, ularda bilim olishga qiziqish uyg'otishga qaratilgan vosita bo'lib, ularning grammatik va semantik tuzilmasi o'ta tartibli, emotsional va ta'sirchan. Yuqoridagi ta'lim shiori nafaqat da'vat etuvchi, balki rag'bat, ilhom, axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni singdiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shior yosh avlodni intilishga undash, qat'iyatli bo'lish, vazifani oxirigacha bajarish kabi maqsadlar bilan shakllantirilgan. Shiorining leksik-semantik tarkibi keng va rang-barang bo'lib, u ma'naviy tarbiya, ruhiy rag'batlantirish va mustahkam hayotiy qadriyatlarni shakllantirish vazifasini bajaradi.

Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan da'vat etuvchi shiorlar o'quvchilarga ruhiy kuch bag'ishlash va ularni maqsad sari yo'naltirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu shiorlar o'z tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari hamda grammatik jihatdan tizimlashtirilgan bo'lishi bilan ajralib turadi. Ular turli turga mansub so'z birikmalari – boshqaruv, predikativ, atributiv kabi munosabatlarga asoslanib tuziladi. Aynan shu jihatlarda bu shiorlarning ta'sirchanlik darajasini oshiradi va o'quvchilar qalbiga tezda singib ketishiga xizmat qiladi. Shiorlarda ko'pincha sabab-oqibat, holat-voqea yoki maqsad-natijani ifodalovchi grammatik tuzilmalar mavjud bo'lib, ular mazmunning kuchli ifodasini ta'minlaydi. Shiorlarda ishlatiladigan

<sup>39</sup>Bu 脚踏实地 ibora ilk marotaba 冰心 [bing xing] Bin Sinning 《谈信纸信封》 [tán xīnzhǐ xīnfēng] “Hat va qog'oz hujjat haqidagi mulohazalar” asarida qayd etilgan.

metafora, idiomalar va kuchli hissiy birliklar qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bunday shiorlarning tuzilish jihatdan chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlil aynan shunday tizimli o'rganish asosida shiorlarning tuzilish mexanizmini yoritib beradi.

刘青 Lyu Chin Xitoy shiorlarini tizimli tahlil etish, hamda Xitoy shiorlarining tuzilishini o'rganishda samarali bo'lishi mumkin. Lekin uning yondoshuvi, bizningcha, shiorlarni barcha struktur xususiyatlarini qamrab olmaydi.

Biz ta'lim shiorlarini struktur xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki guruhga ajratdik: *sodda va murakkab*.

1. Bir turga mansub *sodda* tuzilmali ta'lim shiorlar xitoy tilida juda ko'p ishlatiladi. Bu shiorlar sodda va murakkab gap shaklida bo'lishi mumkin, lekin shiorlar faqat bir turga mansub birikmalar orqali shakllantiriladi. Bu turdagi shiorlarda parallel konstruksiya ko'p uchraydi. Bu turdagi struktura odatda kuchli ta'sir qilish va ma'lumotni qayta-qayta takrorlash orqali o'quvchining diqqatini jalb qilish maqsadida ishlatiladi. Bir turga mansub sodda tuzilmali shiorlar quyidagilar: *Fe'l+ot* birikma, "ega+kesim" birikma, "aniqlovchili" birikma.

1) "*Fe'l+obyekt*" birikma, munosabat turiga ko'ra "*boshqaruv*". Bu sodda tuzilmali shiorlar faqat bir turdagi, ya'ni, *fe'l+ot* birikmasidan tashkil topgan. Masalan: 拥有知识 改变命运, 拥有理想 改变态度 - [yōngyǒu zhīshì gǎibiàn mìngyùn, yōngyǒu lǐxiǎng gǎibiàn tàidù.] – "*Bilim ega bo'lmoq taqdirni o'zgartirar, orzuga ega bolmoq xulqni o'zgartirar*".

2) "*Ega+kesim*" munosabatiga ko'ra "*predikativ*". Bu turdagi ta'lim shiorlar sodda tuzilma hisoblanib, faqat bir turdagi, ya'ni, *fe'l+ot* birikmasidan tashkil topgan. Masalan: 知识强人, 阅读养心 [zhīshì qiáng rén, yuèdú yǎng xīn] – "*Bilim odamni kuchaytiradi, o'qish esa qalbni tarbiyalaydi*".

3) "*Aniqlovchili*" birikma, munosabat turiga ko'ra, "*atributiv*". Bu sodda tuzilmali shiorlar faqat bir turdagi, ya'ni, *aniqlovchi+aniqlanmish* birikmasidan iborat. Masalan: 创新思维, 教育的未来 [chuàngxīn sīwéi, jiàoyù de wèilái] – "*Innovatsion fikrlash ta'limning kelajagi*".

2. Murakkab tuzilmali ta'lim shiorlari turli turga mansub birikmalardan tashkil topgan. Bu shiorlar murakkab gap korinishida bolishi mumkin. Bu turdagi shiorlar gap qismlari *teng huquqli, shartli, sabab-natija* konstruksiyalaridan iborat. Bu turdagi struktura orqali kuchli ta'sir qilish va ma'lumotni qayta-qayta takrorlash orqali o'quvchining diqqatini jalb qilish maqsadida ishlatiladi. Masalan, sabab-oqibat tuzilmali gaplar o'qish jarayonidagi sabablarga va ularning natijalariga e'tibor qaratadi. O'quvchilarga nima uchun ma'lum bir harakatni qilish kerakligini tushuntirishda bu tuzilma juda qulay.

1) Xitoy ta'lim muassasalari tuzgan turli turga mansub birikmalardan tashkil topgan murakkab tuzilma. Masalan: 两眼一睁, 开始竞争 [liǎng yǎn yī zhēng kāishǐ jìngzhēng] – "*Ikki ko'zni ochib raqobatni boshlang*". Shior tuzilishi: *ega+kesim birikma + fe'l+obyekt birikma*. Bu shior tuzilishiga ko'ra ikkita turli birikmadan tashkil topgan murakkab gap.

2) Ikkita yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan murakkab gap.

Murakkab tuzilmali ta'lim shiorlari ikkita yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan grammatik birlik. Bu gaplar bog'lovchilar orqali yoki bog'lovchisiz bir-biriga ulanadi.

a) 是 [shì] bog'lovchi fe'li yordamida tuzilgan ega+是+to'ldiruvchi gap. Masalan: 狠抓基础是成功的基石, 持之以恒是胜利的保证 [hěn zhuā jīchǔ shì chénggōng de jīshí, chízhīyǐhéng shì shènglì de bǎozhèng] - "Asoslarga qat'iyatlilik – muvaffaqiyatning poydevori, muntazamlilik esa g'alaba garovidir!"

Bu shior murakkab gap hisoblanib, quyidagi strukturaga ega: fel+ot birikma+bog'lovchi fe'l+aniqlovchili birikma, fel+ot birikma+bog'lovchi fe'l+aniqlovchili birikma. Bu shior to'rtta turli birikmadan iborat.

b) bog'lovchisiz tuzilmali ega+kesim+to'ldiruvchi (S+V+O) gap. Masalan: 知识改变命运, 知识改变人生 [zhīshì gǎibiàn mìngyùn, zhīshì gǎibiàn rénshēng] – "Bilim taqdirni o'zgartiradi, bilim hayotni o'zgartiradi".

Har bir shiorning grammatik modeli (masalan, VP+NP, NP+VP) ko'rsatilgani natijasida, shior tuzilishini tushunish osonlashadi. Murakkab shiorlarni tahlil qilishda, boshqaruv, predikativ, atributiv kabi munosabat turlari orqali so'zlar o'rtasidagi grammatik aloqalarni ko'rish mumkin.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim vositaga aylangan. Ayniqsa, Xitoy kabi taraqqiy etayotgan davlatlarda ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim shiorlari o'quvchilarni bilim olishga da'vat etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu shiorlar oddiy so'zlar yig'indisi emas, balki chuqur ma'no va g'oyaviy yuklamaga ega til birliklaridir. Shu sababli, ularni tahlil qilishda tilshunoslikning muhim vositalaridan biri - modallik kategoriyasi alohida o'rin tutadi. Aynan modallik vositalari orqali shiorlar o'z g'oyaviy yukini auditoriyaga yetkazadi. Xitoy ta'lim shiorlarida ishlatilgan so'zlar leksik-semantik jihatdan kuchli ijtimoiy-ma'naviy yuklamaga ega bo'lib, ular orqali shiorning g'oyaviy yo'nalishi aniqlanadi.

Modallikning zamonaviy lingvistik tushunchalari fransuz tilshunosi Sh.Balli tomonidan taklif qilingan nazariyaga asoslanadi. Uning fikricha, har qanday bayonotda ikkita komponent mavjud: *dictum* - asosiy mazmun va *modus* - modal komponent, ya'ni. so'zlovchining so'z haqidagi ixtiyoriy, aqliy yoki hissiy mulohazasi<sup>40</sup>.

O.S.Axmanova modallikni so'zlovchining gapga va voqelikka munosabatini bildiruvchi konseptual kategoriya sifatida belgilaydi<sup>41</sup>.

G.V.Kolshanskiy, V.V.Vinogradov, I.B.Xlebnikovalar modallikni semantik kategoriya, deb hisoblaydilar, chunki modal ma'no turli lingvistik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Hozirgi vaqtda tilshunoslar modal munosabatlarning ikki jihatini ta'kidlab o'tadilar: obyektiv va subyektiv modallik. Yuqorida zikr etilgan olimlarning yondoshuvi rus tili grammatikasiga xos bo'lib, bizningcha, xitoy tilidagi shiorlarni barcha xususiyatlarini qamrab olmaydi. Usul jihatdan ularning qarashlariga yondashgan holda, xitoy ta'lim shiorlarini modallik kategoriyasi xususiyatidan kelib chiqib, tizimli tahlil etildi va ta'lim shiorlarining modallik kategoriyasi tasnifi tuzildi.

<sup>40</sup> Панфилов В.З. Категория модальности и ее роль в конструировании структуры предложения и суждения / В. З. Панфилов. – М., 1977. – С. 40-41.

<sup>41</sup> Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов / О. С. Ахманова. – Изд. 2-е. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 237.

1. *Indikativ* (lot. *modus indicativus*) – bu obyektiv modallik bo‘lib, bunday shiorlarda fe‘l reallikni ifoda etadi. Harakat real, ya‘ni, bo‘lgan, bo‘layotgan yoki bo‘lajak holatda ifodalanadi. Bu modallik xabar shaklida ifodalanadi. Masalan: 学习改变命运 [xuéxí gǎibiàn mìngyùn] – “*Ta‘lim taqdirni o‘zgartiradi*”.

